

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 4



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-4>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000


1. Tajibayeva Latofat Farxodovna TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING ADABIYOTDA AKS ETISHI.....	5
2. Syuy Myao КРАТКОЕ РАССМОТРЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ И РИТОРИЧЕСКОЙ ЭСТЕТИКИ В «ЗОЛОТОЙ ЦЕПИ» ЧЖАН АЙЛИН.....	9
3. Najmiyeva Po‘lotoy Tilavmurodovna O‘ZBEK VA YAPON TILLARIDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARI VA YAPON TILIDAGI KELISHIK PARTIKULALARINING MORFOLOGIK HAMDA SINTAKTIK MOHIYATI.....	14
4. Lutfilloeva Faxriniso Maxmudovna ЯПОН МИЛЛИЙ МАФКУРАСИДА ТИЛ ОМИЛИ ВА УНИНГ ИДЕОЛОГИК КОНЦЕПЦИЯСИ.....	20
5. Shaniyazov Jenisbay Ungarbaevich TURKIY VA INGLIZ TILLARIGA MUSHTARAK SO‘ZLAR HAQIDA.....	25
6. Ergasheva Tursunoy Abdukaюmovna ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ ВА SALES TAX АТАМАЛАРИНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ.....	29
7. Xolikov Bahodir DEV O‘ZBEK MIFOLOGIYASI DOMINANT OBRAZALARIDAN BIRI SIFATIDA.....	34
8. Nilufar Abduraxmonova, Mahliyo Eshmamatova PARALLEL KORPUS ASOSIDA RAVISHDOSHLI BIRIKMALARNING SEMANTIKASI VA STRUKTUR MODELLARI TADQIQI.....	40
9. Hasanova Sevinch Hotam qizi THE MULTILEVEL STRUCTURE OF THE LANGUAGE SYSTEM AND ITS CONCEPTUAL INTERPRETATION IN TRANSLATION THEORY.....	52
10. Namazova Manzura Urakovna O‘ZBEK ADABIYOTIDA PSIXOLOGIZM (O‘ZBEK ROMANLARI ASOSIDA).....	58
11. Mavloнова Наргиза Алишеровна ПРИНЦИПЫ ОТБОРА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СООТВЕТСТВИЙ И ИДЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ СООТВЕТСТВИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	63
12. Ismailov Anvar Rustamovich CHET TILI O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINING MOHIYATI.....	70
13. Achilova Zuxra Qurbonovna “MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA AVAZXON BILAN BOG‘LIQ SAFAR MOTIVI VA VAQT KULTI.....	75
14. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Xoljurayeva Yulduz Sobir qizi O‘ZBEK TILIDAGI NORP OBYEKTLARINI BIOES ANNOTATSIYA SXEMASI ASOSIDA ANIQLASH.....	88
15. Kim Татьяна Сергеевна ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ НОВОСТНОГО ТЕКСТА КОРЕЙСКИХ ГАЗЕТ.....	96
16. Лазиза Джиянбаева РАНГ КОМПОНЕНТЛИ ТУРФУН БИРИКМАЛАР.....	102
17. Laziza Dzhiyanbayeva SOCIAL CHARACTERISTICS OF COLOR SEMANTICS.....	108
18. Makhammatkulova Diyora Nodirovna, Makhammatkulova Iroda Nodirovna, Rahimov Nodir Makhammatkulovich DIGITAL FOOTPRINT AS A PHENOMENON OF MODERN EDUCATION.....	114

19. Boboyev Ulash Ne'matovich OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILINING LEKSIK IMKONIYATLARI (GAZETA TILI MISOLIDA).....	120
20. Файзуллаева Мохинорабегим Бехзодбек кизи СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ИЗВИНЕНИЯ В КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	124
21. Rashidova Muxlisa, Sobirova Madina Mahmudjon qizi UNIVERSAL DEPENDENCIES MODELI DOIRASIDA SINTAKTIK ANNOTATSIYALANGAN KORPUSLARNI TAHLIL QILISH.....	129
22. Ишниязова Шахноз Ашировна МИФОЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ТОТЕМИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА: К ПРОБЛЕМЕ ТИПОЛОГИЧЕСКОЙ БЛИЗОСТИ С ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА.....	135
23. Тошбекова Дилором Исмоиловна СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ИРОНИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	143
24. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	149
25. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	154
26. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	161
27. Hakimov Muxamadali Rafikovich ITALYAN TILIDA "ERKAKLIK" GENDER TUSHUNCHASINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL.....	170
28. Lola Ibragimova INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASI: STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR (SOG'LIQ-SALOMATLIK MAQOLLARI MISOLIDA).....	176
29. Nazirova Munisa Mirzakamalovna MODAL BIRLIKLARNING LINGVISTIK VA PRAGMATIK ASOSLARI.....	182
30. Sharipov Raufjon Elmurod o'g'li AKADEMIK G'ANIJON ABDURAHMONOVNING "TARIXIY SINTAKSIS" ASARIDA QO'SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	186
31. N.Z.Abduraxmonova, Salomat Otamurodova MASHINA TARJIMASI VA LINGVISTIK JARAYONLAR.....	191
32. Davlatova Hulkaroy Uktamovna BOLALARDA TIL VA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI: LINGVOKOGNITIV YONDASHUVDA NAMOYON BO'LISHI.....	198



Xakimov Muxamadali Rafikovich
Samarqand davlat chet tillar instituti,
ispan va italyan filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

ITALYAN TILIDA “ERKAKLIK” GENDER TUSHUNCHASINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19322673>

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot italyan tilida “erkaklik” gender tushunchasining leksik-semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda “erkaklik” konsepti til tizimida qanday ifodalanishi, uning semantik tarkibi hamda madaniy mazmuni o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida masculinità, uomo, maschio, virile, virilità kabi leksik birliklarning semantik maydoni, ularning o'zaro munosabati hamda kommunikativ vaziyatlarda qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, erkaklik konseptining italyan lingvokulturasida shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy stereotiplar, madaniy qadriyatlar va diskursiv modellarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda lingvokulturologik, semantik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi. Olingan natijalar italyan tilida gender konseptlarining til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qiladi hamda gender lingvistikasi sohasidagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: gender, madaniy, semantik, diskursiv, til va madaniyat, lingvokulturologik, ilmiy izlanish

Хакимов Мухамадали Рафик угли

Самаркандский государственный институт иностранных языков,
старший преподаватель кафедры испанской и итальянской филологии

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ГЕНДЕРНОГО КОНЦЕПТА «МУЖЕСТВЕННОСТЬ» В ИТАЛЬЯНСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

Данное исследование посвящено лексико-семантическому и лингвокультурологическому анализу гендерного концепта «мужественность» в итальянском языке. В работе рассматривается, каким образом концепт «мужественности» отражается в языковой системе, а также анализируются его семантическая структура и культурное содержание. В процессе исследования изучается семантическое поле таких лексических единиц, как masculinità, uomo, maschio, virile, virilità, их взаимосвязь и особенности употребления в различных коммуникативных ситуациях. Кроме того, особое внимание уделяется социальным стереотипам, культурным ценностям и дискурсивным моделям, влияющим на формирование концепта мужественности в итальянской лингвокультуре. В исследовании используются лингвокультурологический, семантический и сравнительный методы анализа. Полученные результаты позволяют выявить взаимосвязь языка и культуры в формировании гендерных концептов и способствуют дальнейшему развитию гендерной лингвистики.

Ключевые слова: гендер, культурный, семантический, дискурсивный, язык и культура, лингвокультурологический, научное исследование.

Muhamadali Rafikovich Khakimov

Senior Lecturer of the Department of Spanish and Italian Philology,
Samarkand State Institute of Foreign Languages

LEXICAL-SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF THE GENDER CONCEPT “MASCULINITY” IN THE ITALIAN LANGUAGE

ABSTRACT

This study is devoted to the lexical-semantic and linguocultural analysis of the gender concept of “masculinity” in the Italian language. The research examines how the concept of masculinity is represented in the linguistic system and analyzes its semantic structure and cultural content. The study focuses on the semantic field of lexical units such as *mascolinità*, *uomo*, *maschio*, *virile*, and *virilità*, their interrelations, and their usage in different communicative contexts. Particular attention is also paid to social stereotypes, cultural values, and discursive models that influence the formation of the concept of masculinity in Italian linguoculture. The research employs linguocultural, semantic, and comparative methods of analysis. The obtained results help to reveal the interrelation between language and culture in the formation of gender concepts and contribute to the further development of gender linguistics.

Key words: gender, cultural, semantic, discursive, language and culture, linguocultural, scientific research.

KIRISH. Lingvistik genderologiya gumanitar fanlar tizimida nisbatan yaqinda shakllangan ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u o‘zining fanlararo tabiati hamda antropotsentrik yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Ushbu ilmiy paradigma XX asrning 70-yillari oxiri hamda 80-yillari boshlarida, avvalo AQSh ilmiy muhitida shakllana boshlagan. Til va gender o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tadqiq etishga bag‘ishlangan dastlabki ishlardan biri sifatida J. Lakoffning *Language and Woman’s Place* asari tilga olinadi. Shuningdek, G. Lakoffning *Women, Fire, and Dangerous Things* hamda D. Tannenning *You Just Don’t Understand* nomli tadqiqotlari ham gender va til munosabatlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos yaratgan. Mazkur ilmiy ishlar til, jamiyat va gender o‘rtasidagi murakkab aloqalarni o‘rganish uchun yangi metodologik yo‘nalishlarni shakllantirib berdi.

Bugungi kunda tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlar til va gender o‘rtasidagi munosabatning turli qirralarini keng yoritib bermoqda. Xususan, leksik-semantik yo‘nalishdagi tadqiqotlar gender tushunchalarining til tizimida qanday ifodalanishini tahlil qilishga qaratilgan. Italiya til tizimida “erkaklik” tushunchasi muhim lingvokulturologik va semantik konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu konsept asosan *uomo* (erkak), *maschio* (erkak jinsi vakili) hamda *virilità* (erkaklik, mardlik) kabi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Mazkur birliklar faqat biologik jinsni bildiruvchi nominativ ma‘nolar bilan cheklanmay, balki jamiyatda shakllangan ijtimoiy va madaniy stereotiplarni ham o‘zida aks ettiradi.

Italiya lingvokulturasida erkaklik konsepti ko‘pincha kuch, jasorat, mas‘uliyat va oilaga g‘amxo‘rlik qilish kabi semantik komponentlar bilan bog‘lanadi. Masalan, *uomo vero* (“haqiqiy erkak”) birikmasi erkak shaxsining faqat biologik belgilarini emas, balki uning axloqiy va ijtimoiy fazilatlarini ham ifodalovchi birlik sifatida qo‘llanadi. Shuningdek, *virile* sifatdoshi erkakka xos qat‘iyat, matonat va kuch kabi sifatlarni semantik jihatdan ifodalaydi.

Leksik-semantik nuqtai nazardan qaralganda, italyan tilida erkaklik konsepti bir qator sinonimik qatlamlar orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, *uomo*, *maschio* va *signore* kabi birliklar turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanib, erkak shaxsining ijtimoiy mavqei, madaniy statusi yoki kommunikativ rolini aks ettiradi. Bundan tashqari, erkaklik konsepti italyan paremiologik tizimida

ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, “L’uomo si conosce nelle difficoltà” (“Erkak qiyinchilikda bilinadi”) maqolida erkaklik tushunchasi bardoshlilik va matonat bilan semantik jihatdan bog‘lanadi.

Italyan tilidagi erkaklik gender konsepti til birliklari orqali nafaqat biologik jinsni ifodalovchi kategoriya sifatida, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan madaniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat esa til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy hamda o‘zaro ta’sirli munosabat mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi.

ASOSIY QISM. Rus tilshunosligida genderga oid lingvistik tadqiqotlar G‘arb ilmiy an‘analariga nisbatan biroz kechroq shakllana boshlagan bo‘lib, ular asosan XX asrning 1980-yillari oxiri va 1990-yillarning boshlaridan boshlab tizimli ravishda rivojlandi. Ushbu ilmiy yo‘nalishning shakllanishida A. V. Kirilining gender va til munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, uning “Lingvistika va kommunikatsiya nazariyasida gender tadqiqotlari” hamda “Tilshunoslikda gender muammolari” nomli ishlari til tizimida gender omilining namoyon bo‘lishi, nutq jarayonida gender stereotiplarining aks etishi hamda kommunikativ faoliyatda jins bilan bog‘liq ijtimoiy omillarning rolini tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, E. I. Goroshkoning “Jins, gender va til” nomli asari ham gender lingvistikasi doirasida til va ijtimoiy identifikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlar til tizimida gender kategoriyasining qanday aks etishini, shuningdek, ijtimoiy stereotiplar va madaniy qadriyatlarining nutqiy faoliyat orqali qanday ifodalanishini yoritib beradi. Bu esa gender tushunchalarini lingvistik va lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilish uchun zarur nazariy asos yaratadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, gender konseptologiyasi hozirgi tilshunoslikda hali to‘liq va chuqur tadqiq etilmagan ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Biroq til va jamiyat, til va madaniyat hamda til va ijtimoiy identifikatsiya o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular gender lingvistikasi rivojlanishi uchun muhim metodologik va nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur ilmiy qarashlar italyan tilidagi “erkaklik” gender konseptini leksik-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki erkaklik tushunchasi nafaqat til birliklari orqali ifodalanadigan semantik kategoriya, balki jamiyatda shakllangan madaniy stereotiplar, ijtimoiy rollar va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan lingvokulturologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot doirasida avvalo “konsept” atamasining turli ilmiy talqinlari ko‘rib chiqilib, uni tushunishga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, konsept, tushuncha hamda ma’no kategoriyalari o‘rtasidagi o‘zaro farqlar masalasi ham ilmiy nuqtai nazardan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida konseptning ichki tuzilishi, uning semantik komponentlari hamda kognitiv mazmuni ham alohida e’tibor markazida bo‘ladi. Bob doirasida konseptni tavsiflash metodikasi ham yoritilib, ushbu metodologik yondashuvning turli variantlari va ularning lingvistik tahlilda qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, mahalliy hamda xorijiy tilshunoslikda olib borilgan gender tadqiqotlari tahlil qilinib, ular doirasida gender konseptlarining til tizimidagi o‘rni va funksiyasi haqida ham fikr yuritiladi. Bu esa gender kategoriyalarining til, madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya bilan bog‘liqligini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, tilshunoslik va grammatika tarixida muhim o‘rin tutgan masalalardan biri — tabiiy jins (biologik jins) hamda grammatik jins o‘rtasidagi munosabat muammosi ham tadqiqot doirasida ko‘rib chiqiladi. Mazkur masala til tizimida jins kategoriyasining qanday shakllanishi va funksional jihatdan qanday namoyon bo‘lishini tushuntirishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, italyan tilida “erkaklik” (ital. *mascolinità*) tushunchasi murakkab semantik tuzilishga ega bo‘lgan konsept sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat grammatik jins kategoriyasi bilan bog‘liq bo‘lib, balki ijtimoiy-madaniy identifikatsiya modeli bilan ham uzviy aloqador hisoblanadi. Mazkur konsept til tizimida turli lingvistik vositalar orqali ifodalanadi, jumladan, leksik birliklar, frazeologik birikmalar, metaforik modellar hamda diskursiv konstruktsiyalar orqali realizatsiya qilinadi. Shu sababli erkaklik konseptini leksik-semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Leksik-semantik nuqtai nazardan qaralganda, italyan tilidagi *mascolinità* leksemasi *maschile* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, uning etimologik ildizi lotincha *masculus* shakliga borib taqaladi. Mazkur birlikka qoʻshilgan *-ità* suffiksi abstrakt sifat yoki holatni ifodalovchi semantik funksiyani bajaradi. Natijada *mascolinità* leksemasi erkakka xos boʻlgan xususiyatlar majmuasini umumlashtiruvchi abstrakt tushunchani ifodalovchi lingvistik birlik sifatida shakllanadi.

Semantik jihatdan ushbu leksema bilan maʼlum darajada yaqinlikka ega boʻlgan bir qator birliklar ham mavjud boʻlib, ular qatoriga *virilità*, *uomo*, *maschio* hamda *virile* kabi soʻzlar kiradi. Biroq mazkur birliklar oʻzaro toʻliq sinonim hisoblanmaydi, chunki ularning semantik hajmi va funksional qoʻllanishi turlicha. Masalan, *virilità* tushunchasi koʻproq jismoniy kuch, qatʼiyat hamda biologik qudrat bilan bogʻliq maʼnolarni ifodalasa, *mascolinità* konsepti erkak shaxsining ijtimoiy identiteti, madaniy roli va jamiyatdagi mavqeini ham qamrab oluvchi kengroq semantik maydonga ega. Italyan tilidagi lugʻaviy manbalarda “erkaklik” odatda “erkakka xos boʻlgan sifat va fazilatlar majmui” sifatida talqin qilinadi. Biroq bunday taʼriflar koʻpincha jamiyatda shakllangan normativ stereotiplar bilan ham bogʻliq boʻladi. Masalan, *vero uomo* (“haqiqiy erkak”), *uomo forte* (“kuchli erkak”), *uomo d’onore* (“shaʼnli erkak”) kabi birikmalar erkaklik tushunchasini kuch, hokimiyat, masʼuliyat va ijtimoiy ustuvorlik kabi semantik komponentlar bilan bogʻlaydi. Shu tariqa, italyan tilidagi leksik birliklar erkaklik konseptining nafaqat semantik mazmunini ifodalabgina qolmay, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan erkaklik ideal modeli hamda madaniy stereotiplarning lingvistik ifodasini ham namoyon etadi.

Lingvomadaniy nuqtai nazardan, italyan madaniyatida erkaklik anʼanaviy ravishda kuch (*forza*), shaʼn (*onore*), himoya va oilaviy yetakchilik bilan uygʻunlashgan. Tarixiy-adabiy diskursda erkak obrazi patriarxal model asosida tasvirlangan. Masalan, Alessandro Manzoni asarlarida erkak qahramon axloqiy yetakchi sifatida namoyon boʻlsa, Italo Calvino ijodida erkaklik koʻproq ichki ziddiyat va refleksivlik bilan ifodalanadi. Bu esa kontseptning diaxron evolyutsiyasini koʻrsatadi.

Italyan tilining grammatik tizimida erkak jinsi koʻpincha belgilanmagan shakl sifatida namoyon boʻladi. Xususan, aralash jins vakillaridan tashkil topgan guruhni ifodalashda koʻplik shaklida erkak jinsining qoʻllanishi (*maschile generico*) keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bu holat erkak jinsining til tizimida maʼlum darajada markaziy pozitsiyani egallashini koʻrsatadi. Biroq mazkur lingvistik hodisani tilning oʻziga xos seksistik xususiyati sifatida talqin qilish toʻliq asosli emas. Aksincha, u tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan ijtimoiy-madaniy konseptual tizimning til strukturasi aks etishi sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy va madaniy diskurslarda erkaklik konsepti tobora yangi talqinlarga ega boʻlib bormoqda. Anʼanaviy ravishda hukmron boʻlgan hegemonik erkaklik modeli bilan bir qatorda, hamkorlik, empatiya va emotsional ochiqlik kabi sifatlarni ham qamrab oluvchi yangi erkaklik modeli shakllanmoqda. Mazkur jarayon italyan lingvokulturasida ham sezilarli boʻlib, u ommaviy axborot vositalari, reklama diskursi hamda akademik muhitda faol ravishda aks etmoqda. Shunday qilib, italyan tilida “erkaklik” konsepti nafaqat leksik-semantik birliklar orqali, balki grammatik strukturalar va zamonaviy diskursiv amaliyotlar orqali ham namoyon boʻladi. Bu esa mazkur gender konseptining til, madaniyat va jamiyat oʻrtasidagi murakkab oʻzaro munosabatlar doirasida shakllanib borayotganini koʻrsatadi.

MUHOKAMA/NATIJALAR. Til insonlar oʻrtasidagi muloqotni taʼminlovchi vosita boʻlish bilan birga, muayyan xalqning milliy xarakteri, qadriyatlar va ideallarini ham oʻzida aks ettiruvchi muhim madaniy tizim hisoblanadi. Shu sababli til birliklari koʻpincha muayyan lingvokulturaga xos boʻlgan anʼanaviy ramzlar, obrazlar va semantik modellarda ifodalanadi. Bunday hodisa ayniqsa gender konseptlarini oʻrganishda yaqqol namoyon boʻladi, chunki til orqali jamiyatda shakllangan ijtimoiy tasavvurlar va madaniy stereotiplar ham ifodalanadi.

Tilshunoslikdagi gender yondashuvi, avvalo, jamiyatda mavjud boʻlgan gender stereotiplarini tahlil qilishga asoslanadi. Mazkur stereotiplar erkak va ayol vakillariga xos deb hisoblangan xulq-atvor modellari, ijtimoiy rollar hamda psixologik xususiyatlar haqidagi tasavvurlar majmuasini oʻz ichiga oladi. Shu jihatdan qaralganda, “erkak” va “ayol” kabi kategoriyalar faqat biologik jinsni ifodalovchi tushunchalar boʻlib qolmay, balki maʼlum ijtimoiy atributlar bilan bogʻlangan madaniy konstrukt sifatida ham namoyon boʻladi. Bunday atributiv belgilar qatoriga tashqi koʻrinish, kasbiy

faoliyat, ijtimoiy rol va xulq-atvor stereotiplari kiradi. Shuningdek, nutqiy xulq-atvor ham gender stereotiplarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki erkak va ayollarga xos deb qaraladigan kommunikativ uslublar til tizimida ham ma'lum darajada aks etadi. Shu sababli italyan tilidagi “erkaklik” konseptini leksik-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish gender stereotiplarining til birliklarida qanday shakllanishi va namoyon bo'lishini aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, gender stereotipining asosiy komponenti madaniyat hisoblanadi. Madaniyat etnomadaniy ongda erkak va ayolning umumiy “portreti”ni shakllantiradi. Bu portret keng ma'noda qadriyatlar tizimini, xulq-atvor me'yorlarini, shuningdek axloq va ma'naviyat haqidagi an'anaviy tasavvurlarni o'z ichiga oladi

Italyan tilining o'zida ham grammatik jins bilan tabiiy jins o'rtasida doimiy va tizimli moslik mavjud emas. Shubhasiz, ayniqsa shaxslarni ifodalashda bu ikki kategoriya ko'pincha bir-biriga moslashtiriladi (masalan, il padre va la madre, il fratello va la sorella, il compare va la comare, yoki il maestro va la maestra, il principe va la principessa, il cameriere va la cameriera, il lavoratore va la lavoratrice va hokazo). Biroq bu har doim ham shunday emas: guida, sentinella va spia grammatik jihatdan ayol jinsiga mansub otlar bo'lsa-da, ko'pincha (hatto ko'proq hollarda) erkaklarni bildiradi. Aksincha, soprano va contralto an'anaviy ravishda (garchi bugungi kunda ayol shakli la soprano keng tarqalgan bo'lsa ham) grammatik jihatdan erkak jinsidagi otlar bo'lib, ikki asrdan ortiq vaqtdan beri ayol xonandalarga nisbatan qo'llanib keladi. Arlecchino bir niqob (maskara) hisoblanadi, xuddi Colombina kabi (garchi Carlo Goldoni Le donne gelose asarida u uchun erkak jins shakli mäsaroni qo'llagan, I Rusteghi asarida esa sahnadagi ayollar graf Rikardoga nisbatan mäsara omo iborasini ishlatib, Filippettoga — ayol kiyimida Lunardo uyiga kirgan qahramonga — siora mäsara dona deb murojaat qilgan bo'lsalar ham). Mirandolina esa bir personajdir, xuddi unga oshiq bo'ladigan Cavaliere di Ripafratta kabi.

To'g'ri, og'zaki nutqda referentning jinsiga bog'liq holda ot jinsining siljishi kuzatilgan: modello shaklidan modella hosil bo'lgan; un tipo (“bir yigit”) bilan bir qatorda una tipa ham ishlatiladi; membro yonida membra shakli kengayib bormoqda; aksincha, ayol jinsidagi figuradan erkak jinsidagi figura hosil bo'lgan (biroq salbiy ma'noda). Shuningdek, “umumiy jinsli” deb ataluvchi otlar mavjud bo'lib, ular jins o'zgarishiga ko'ra shaklini o'zgartirmaydi, jins farqi artikl orqali ifodalanadi: masalan, cantante, preside, custode, consorte, coniuge (ko'pchiligimiz bular bilan soliq deklaratsiyasida tanishganmiz, unda jins ko'rsatilmasdan dichiarante va coniuge dichiarante iboralari qo'llanadi). Hayvonot olamiga murojaat qilsak, albatta, il montone yoki ariete va la pecora (biroq ko'plikdagi le pecore ko'pincha butun podani, jumladan qo'chqorlarni ham anglatadi), il gatto va la gatta, il gallo va la gallina, il leone va la leonessa kabi farqlar mavjud. Ammo aksariyat hollarda ot (erkak yoki ayol jinsida bo'lishidan qat'i nazar) ham erkak, ham urg'ochi hayvonni bildiradi (la lince, il leopardo, la iena, la volpe, il pappagallo, la gazza, il gambero, la medusa va hokazo). Bunday otlar an'anaviy grammatikada “episen” deb ataladi. Vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan il tartarugo kabi shakllarni yoki la tartaruga maschio (erkak toshbaqa) kabi analitik ifodalarni chetga surib qo'yamiz, chunki ular tizimda markaziy emas, balki chekka hodisalardir.

Zamonaviy tilshunoslikda gender parametrlarini tavsiflash masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etayotgani ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanmoqda. So'nggi yillarda gender muammolari tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, bu holat til, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yanada chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Har qanday madaniyat tizimida asosiy konseptlar qatorida “erkak” va “ayol” tushunchalari muhim o'rin egallaydi. Bu tabiiy holat hisoblanadi, chunki barcha jamiyatlarda erkak va ayol vakillari o'zaro farqlanadi hamda ijtimoiy tizim tomonidan ularga xos bo'lgan muayyan ijtimoiy va jinsiy xulq-atvor rollari shakllantiriladi. Shu bois gender konseptlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar hamda madaniy stereotiplarning muhim aks ettiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan gender tadqiqotlari asta-sekin o'zining mustaqil metodologiyasi, tahlil usullari hamda konseptlarni talqin qilish prinsiplari bilan boyib bormoqda. Bu esa gender konseptlarini lingvistik va lingvomadaniy jihatdan yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa tilning mazmuniy qatlamida muayyan etnosning dunyo manzarasi shakllanadi va

aynan shu manzara jamiyatda mavjud bo‘lgan ko‘plab madaniy stereotiplarning asosini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, til orqali shakllangan konseptual tizimni tahlil qilish turli milliy madaniyatlarining o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday tahlil turli madaniyatlarining jahon madaniyati doirasida qanday o‘zaro ta’sirga kirishishi va bir-birini qanday boyitishini tushunish imkonini ham beradi. Mazkur yondashuv italyan tilida “erkaklik” gender konseptining leksik-semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishda ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA. Umuman olganda, italyan tilida “erkaklik” gender tushunchasi murakkab va ko‘p qatlamli semantik hamda lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur konsept faqat biologik jins bilan cheklanib qolmaydi, balki tarixiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar hamda kommunikativ-diskursiv omillar ta’sirida shakllangan madaniy mazmuni ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, til ushbu jarayonning oddiy aks ettiruvchisi bo‘libgina qolmay, balki erkaklik haqidagi jamoaviy tasavvurlarni shakllantirish va mustahkamlashda faol rol o‘ynaydigan muhim lingvokulturologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Italyan tilidagi leksik birliklar, frazeologik ifodalar hamda paremiologik materiallar orqali “erkaklik” konsepti jamiyatning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy stereotiplari va madaniy tasavvurlari bilan uzviy bog‘liq holda ifodalanadi. Shu sababli mazkur konseptni o‘rganish nafaqat leksik-semantik jihatdan, balki lingvomadaniy kontekstda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Лакофф Дж. Женщины, огонь и опасные вещи: Что категории языка говорят нам о мышлении / пер. с англ. И.Б. Шатуновского. - М.: «Языки славянской культуры», 2004. - 792 с.
2. Кирилина А. Тендерные исследования в лингвистике и теории коммуникации. Москва: РОССПЭН, 2004. С. 131.
3. Горошко Е.И. Пол, тендер, язык // Женщина. Тендер. Культура / Ред. З.А. Хоткина, Н.Л. Пушкарева, Е.И. Трофимова. - М., 1999. - 368с. - С. 98-111.
4. ЗЫКОВА, С.А. «Способы выражения доминирующей маскулинности в лексическом фонде испанского языка», Вестник Томского государственного университета, 2009. 318, 25-27.
5. МАСЛОВА, В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие, Москва. 2001
6. R.W. Connell, Masculinities, Berkeley, University of California Press, 1995.
7. T. De Mauro (a cura di), GRADIT – Grande Dizionario Italiano dell’Uso, Torino, UTET, 1999.
8. C. Robustelli, Lingua italiana e questioni di genere, Roma, Carocci, 2018.
9. Robustelli Cecilia, 2000. ‘Lingua e identità di genere’, in Studi Italiani di Linguistica Teorica e Applicata, XXIX, 2000. pp. 507-527.
10. CAMPOS, J.; BARELLA, A. Diccionario de refranes ESPASA, Madrid. 1993.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000